

O'ZBEK VA INGLIZ XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI UMUMIY JIHATLAR

Shermamatova Sevara

Farg'ona davlat universiteti,

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

Mamasiddiqova Mohinur

Farg'ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Bir qancha qadriyatlarni o'z ichiga olgan xalq og'zaki ijodi ko'plab adabiyotshunos olimlarni qiziqtirgan mavzudir. Shuning uchun, agar siz folklorga qiziqsangiz, ushbu maqola orqali kerakli ma'lumotlarni topishingiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu maqolada ikki o'zbek va ingliz xalqlarining eng mashhur namunalari haqida tushunchalar mavjud.

Kalit so'zlar: folklor, janr, Alpomish, Beovulf, Vilyam Tomas, doston, qo'lyozma.

ABSTRACT

Folklore, which includes several values, is a topic that has been of interest to many literary scholars. Therefore, if you are interested in folklore, you can find the information you need that through this article. In addition, this article also contains insights about the most famous examples of the two uzbek and english nations.

Key words: folklore, genre, Alpomish, Beowulf, William Thomas, epic poem, manuscript

KIRISH

Har bir millatning ko'zgusi bo'lmish uning xalq og'zaki ijodi qadim tarixni o'z ichiga oladi. Unda xalqlarning jamiyki urf-odatlar, beqiyos an'analari, milliyligi, umumbashariy qadriyatlari aks etadi. Bu ko'zgu orqali o'sha millatning milliy o'zligi yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki uning zamirida necha-necha mehnatlar mujasamdir. Ota-bobolarning ko'rgan –kechirganlari yuzasidan vujudga kelgan, bir qancha sinovlarning natijasi o'laroq paydo bo'lgan bu kabi o'lmas asarlar zamonlar o'tgani sayin sayqallanib boraveradi. Barcha millatlarning xalq og'zaki ijodidagi namunalari bir-biriga o'zaro o'xshamasligi mumkin, biroq mantiqan olib qaraydigan bo'lsak, ularning maqsadi, umumiy tushunchasi (jasur, xalqparvar, sof vijdon egasi bo'lgan qahramonni asarning bosh obrazi sifatida gavdalantirilishi) kabi jihatlari bilan ham yaqindir.

Xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand-nasihatlar, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, Alp Erto'nga, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlar, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan

soʻz tizimlaridan iborat maqol, qoʻshiq, ertak, doston, bolalarga bagʻishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq ogʻzaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat boʻlgan. Xalq ogʻzaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan boʻlib, uning maʼnosi “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma sanʼat namunalari tushuniladi. Meʼmorlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardoʻzlik, musiqa, raqs, ogʻzaki adabiyot namunalari - hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir sanʼat sohasida ish olib borayotgan mutaxassis oʻzi tanlagan tumi “folklor” deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq meʼmorchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklorasari deb hisoblaydi. Biz - soʻz sanʼati sirlarini oʻrganuvchi sohada ish yuritganimiz uchun maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qoʻshiq, ertak, dostonlarni folklor namunasi sifatida yozib olamiz, tahlil qilamiz. “Folklor” atamasini talaffuz qilganimizda xalq ogʻzaki ijodini tushunamiz. Xalq ogʻzaki ijodini oʻrganuvchi olim folklorshunos hisoblanadi. Folklorshunoslik hozirgi paytda adabiyotshunoslikning tarkibiy qismidir. Badiiy adabiyot xalq ogʻzaki ijodidan boshlanadi. Binobarin, adabiyot tarixining birinchi qismini folklor tashkil etadi. Shuning uchun filologiya fakulteti talabalari mutaxassis sifatida shakllanish jarayonini xalq ogʻzaki ijodini oʻrganishdan boshlaydilar.¹

Oʻzbek folklorining goʻzal namunasi. Alpomish.

Umumiy olib qaraganda, barcha xalqlarning folklor sanʼati deyarli oʻxshash janrdagi asarlarni oʻz ichiga oladi. Xususan, eng koʻp uchraydigani – doston, bundan tashqari topishmoqlar, maqollar va shu kabilar. Asosan, dostonlarni uchratamiz. Sababi ular baxshilar tomonidan musiqa joʻrliga ijro etilganidadir. Ular liro-epik turga mansub boʻlib, ham sheʼriy usulda ham nasriy usulda bayon etiladi. Dostonlar adabiy dostonlar ham boʻlishi mumkin, yaʼni bunda asar kim tomonidan yozilganligi, aniqroq qilib aytganda, muallifi aniq boʻladi. Bu kabi dostonlarga Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurgʻ yoki Parizod va Bunyod” singari dostonlarni kiritishimiz mumkin.

Xalq dostonlari esa muallifi nomaʼlum, ogʻizdan ogʻizga oʻtib keladigan asarlardir. Aslida ularning muallifi ham xalq hisoblanadi. Oʻzbek xalq poetikasining eng mashhur dostonlari “Alpomish”, “Gʻoʻroʻgʻli”, “Rustamxon” hamda “Kuntugʻmish” asarlaridir. Lekin bularning ham ichida “Alpomish” alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹ Omonulla Madayev. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. 2010. 7-bet

“Alpomish” dostoni faqat ijro jihatidan emas, mazmun, g’aroyib voqealar tasviri, qahramonlar sarguzashtlari, hayotiy muammolarning qo’yilishi bilan ham murakkabdir. Masalan, ilm tarixida bir ayolning bir nechta aka-ukalar bilan bitta oila bo’lib turmush qurishi - poliandriya haqida ma’lumotlar bor. Biz Fozil Yo’ldosh o’g’lining bunday oila tizimi haqida ma’lumoti bor-yo’qligini bilmaymiz. Lekin ustozdan o’rganilgan matnga fidoyilik, ustoz fikrini ikki qilmaslik, ustoz gapini buzmaslik odati Fozil otani doston aytishda bir necha marta alp aka-ukalar nomidan Barchinga qarata: “...yo birimizga teg, yo barimizga teg”, - deyishga majbur qilgan. Insoniyat tarixidagi minglab yillar oldin o’tgan poliandriya oila tushunchasi, qanday qilib, “Alpomish”da saqlanib qoldi. Yana qizig’i shundaki, na Boysari, na Barchin alp aka-ukalarning gaplariga ortiqcha asabiy munosabatda bo’lmaydilar, bu gapni oddiy maishiy hayot holati sifatida qabul qiladilar. Bunga o’xshagan hozirgi ijtimoiy hayot nuqtai nazaridan tushunish va atroflicha sharh berish o’ta qiyin voqea lavhalari dostonida juda ko’p. Olimlar ularga imkon darajada ilmiy izoh berishga harakat qilib kelmoqdalar.² Hatto baxshilarning qobiliyatlarini aniqlash maqsadida ularga “Alpomish” dostonini ijro ettirilganligi haqida ham ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Bundan tashqari ayrim manbalarda ushbu dostonning qirقدan ziyo variantlari mavjudligi haqida ham ma’lumotlar ham bor.

“Alpomish” dostoni bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qadimgi dostonchilik an’analari asosida xalq og’zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo’lsa-da, aslida “Alpomish” dostoning eng qadimiy qatlamlari miloddan avvalgi yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o’zida aks ettirgan. Mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, “Alpomish” dostonini xalqaro YUNESKO tashkiloti jahon ma’naviy mulki sifatida tan oldi. Eslatmoq o’rinliki, bu doston bir paytlar deyarli unutilayozgan edi. Faqatgina to’ylarda taniqli baxshilar tomonidan kuylanardi. Endilikda esa, u turli variantlarda yozib olinib, ko’p nusxalarda kitob holida qayta-qayta nashr etildi.³

Shu o’rinda aytish joizki, 2000-yilda jahon miqyosida ushbu dostonning ming yilligi nishonlangan bo’lsa, mamlakatimizda 1999-yil 9-noyabrda tantanali ravishda nishonlanganligi haqida maktab o’quv darsliklarida ham aytib o’tilgan.

“Alpomish” - o’zbekning o’zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o’tkazib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir”. “Aslida xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo’lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shohbaytidir”⁴

² Omonulla Madayev. “O’zbek xalq og’zaki ijodi”.2010. 178-bet

³ <https://askinfo.uz/1021/alpomish-dostoni-haqida-insho>

⁴ Islom Karimov “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag’ishlangan nutqidan. “Xalq so’zi” gazetasi . 1999.

INGLIZ FOLKLORI. BEOWULF.

Qadimgi ingliz adabiyoti VII asrdan 1066 yilgi Norman istilosidan keyingi oʻn yilliklargacha boʻlgan oʻrta asrlarning boshlarida Angliyada qadimgi ingliz tilida yozilgan sheʼr va nasrni nazarda tutadi, bu davr koʻpincha Anglo-Sakson Angliyasi deb ataladi.⁵ VII asrda "Kedmonning madhiyasi" (Caedmon's Hymn) asari ingliz tilidagi eng qadimgi sheʼr hisoblanadi, chunki u Bede matnining VIII asr nusxasida, ingliz xalqining cherkov tarixida uchraydi⁶ XII asrning oʻrtalarida yozilgan ayrim sheʼrlar ham eski ingliz tiliga ham misol boʻla oladi.⁷ Qadimgi ingliz adabiyoti quyidagilardan iborat: vaʼzlar va ulugʻ kishilarning hayoti; Injil tarjimalari; ilk cherkov otalarining lotin tiliga tarjima qilingan asarlari; xronikalar va hikoya tarixi asarlari; qonunlar, vasiyatnomalar va boshqa huquqiy hujjatlar; grammatika, tibbiyot va geografiyadan amaliy ishlar; va sheʼriyat.⁸ Hammasi boʻlib, oʻsha davrga oid 400 dan ortiq qoʻlyozma saqlanib qolgan, ulardan 189 tasi asosiy hisoblanadi.⁹ Bundan tashqari, qadimgi inglizcha matnlarning bir qismi tosh konstruktsiyalar va bezakli narsalarda saqlanib qolgan¹⁰.

Ingliz xalqining ham milliyligini koʻrsatib turuvchi xalq ogʻzaki ijodi nafaqat dostonlardan balki bir qator afsona hamda miflardan ham iboratdir. Ushbu asarlarning ham asosiy mavzusi yomonlik ustidan yaxshilikning gʻalaba qozonishi, ona vatan uchun kurash, mardlik, doʻstlikning ustunligi kabi kabi bir qator mavzulardir. Ingliz xalqining "Alpomishi"i boʻlmish "Beowulf" dostoni ham katta mavzuni qamrab oladi. Ushbu dostonda qahramonlik, yovuz kuchlarga tik qaray olish hamda shijaotlilik kabi hislatlar ulugʻlanadi. Bu asar ingliz tilida saqlanib qolgan eng qadimiy epik sheʼr va xalq tilidagi Yevropa adabiyotining eng qadimgi asari hisoblandi. Ushbu asar qadimgi ingliz "sakslar" tilida yozilgan. Oʻshandan beri uni 65 tilga tarjima qilingan deya taxmin qilinadi¹¹.

Afsuski, ushbu mashhur epik sheʼrning kelib chiqishi haqida kam maʼlumot mavjud. Koʻpchilik "Beowulf" VII asrda vafot etgan shoh uchun elegiya sifatida tuzilgan boʻlishi mumkin, deb hisoblashadi, ammo bu shoh kim boʻlganligi haqida deyarli maʼlumotlar mavjud emas. Eposda tasvirlangan dafn marosimlari Satton Hoo-da topilgan dalillarga juda oʻxshashligini koʻrsatadi. 1845 yilda qoʻlyozma sahifalari keyingi zararlardan xalos qilish uchun qogʻoz ramkalarga oʻrnatildi. Chindan ham bu

⁵ Henry Bradley, John Manly, (1911). "English Literature"

⁶ Lerer Constance. "The Metrical grammar of Beowulf". 1997. 7-bet

⁷ William Paton Ker. "Beowulf" 1999. 11-bet

⁸ Kameron 1982. 275-bet

⁹ William Paton Ker. "Beowulf". 1990. 15-bet

¹⁰ Kameron Saunders. "Beowulf project". 1982. 275-bet

¹¹ <https://uz.socmedarch.org/beowulf-what-you-need-to-know-1788397-8543>

usul sahifalarni himoya qila oldi, lekin chekkalari atrofida ba'zi harflarni ham qoplab olganligi tufayli ayrim so'zlar yopiq ya'ni ko'rinarsiz holga kelib qoldi.

Biroq, 1993 yilda Britaniya kutubxonasi "Elektron Beowulf" loyihasini boshladi. Maxsus infraqizil va ultrabinafsha yoritish texnikasi yordamida qo'lyozmaning elektron tasvirlari yasalganligi sababli yopiq harflar aniqlandi.

Ayrim taxminlarga ko'ra, she'r miloddan avvalgi 700-yillarda tuzilgan bo'lishi mumkin va u oxirigacha yozilmagan bo'lsa-da ko'plab takrorlashlar orqali hozirgi holigacha yetib kelgan "Beowulf" ko'plab butparast va folklorik elementlarni o'z ichiga oladi, ammo inkor etilmaydigan xristian mavzularini ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu ikkilamchi narsa ba'zilarining eposni bir nechta muallifning asari sifatida talqin qilishiga olib keldi. Boshqalar buni ilk o'rta asrlarda Buyuk Britaniyada butparastlikdan nasroniylikka o'tishning ramziy belgisi sifatida ko'rishgan.¹²

QO'LYOZMA TARIXI

"Beowulf" ning yagona qo'lyozmasi sanalari taxminan 1000 yilga to'g'ri keladi. Qo'l yozish uslubi shuni ko'rsatadiki, uni ikki xil odam yozgan. Yozuvchi asl hikoyani bezatganmi yoki o'zgartirganmi, noma'lum. Dostonning birinchi transkripsiyasi 1818 yilda Islandiyalik olim Grimur Xonson Torkelin tomonidan qilingan. Qo'lyozma judayam eskirsa-da undagi ma'lumotlar yaxshi saqlanib qolganligi sababli Torkelinning versiyasi juda qadrlanadi, ammo uning to'g'riligi ko'plab shubhalar ostida qolgan.

Dastlab ushbu qadimgi dostonning birinchi tarjimasi 1818 yildagi transkripsiyasi bilan bog'liq ravishda Torkelin tomonidan lotin tiliga qilingan edi. Ikki yildan so'ng Nikolay Grundtvig zamonaviy tilda, daniyalik tilida birinchi tarjimani amalga oshirdi. Zamonaviy ingliz tiliga birinchi tarjimani 1837 yilda J. M. Kemble amalga oshirgan. Hammasi bo'lib epik she'r 65 tilga tarjima qilingan deb taxmin qilinadi. O'shandan beri ko'plab zamonaviy ingliz tilidagi tarjimalar mavjud. 1919-yilda Frensis B. Gummer tomonidan tayyorlangan versiya mualliflik huquqiga ega emas va u bir nechta veb-saytlarda bepul. Ushbu epic asarning nasrda ham, she'r shaklida ham so'nggi paytlarda ko'plab tarjimalari mavjud¹³ Beovulfning eng asosiy qahramonlari – Gits qahramonlaridan biri bo'lgan Beovulfning o'zi; Xrotgar, Daniya qiroli; va Wiglaf, jangchi va Beovulfning yaqin do'sti. Doston voqealari bir qancha yillar davomida sodir bo'ladi, ya'ni u Beovulfning yoshligidagi harakatlardan boshlanib, toki uning o'limigacha bo'lgan bir nechta jarayonlarni qamrab oladi. Beovulf to umrini oxirigacha Gitsni taxminan ellik yil davomida qiroli sifatida boshqaradi. Asardagi Beovulf ta'riflarining aksariyati Beovulfning tashqi ko'rinishidan ko'ra

¹² Ellen Moore. 2021. 4- noyabr

¹³ <https://uz.socmedarch.org/beowulf-what-you-need-to-know-1788397-8543>

harakatlariga ko'proq tasvirlab beradi biroq bu asarda Beovulfning tashqi tasviri ko'rsatilmagan degani emas chunki asarni kerakli qismlarida uning tashqi ko'rinishi haqida bir nechta tafsilotlarni olishingiz ham mumkin. Yani, "bo'yi baland bo'lishidan tashqari, Beovulf juda kuchli. U go'yoki "o'ttizta kuchga ega / Har bir qo'lning ushlagichida" (Heaney).¹⁴ U yosh, taxminan yigirma yoshda va Anglo-Sakson me'yorlariga ko'ra, yaxshi ko'rinishga ega. Uning o'zini tutish yo'lini ko'rganlarning barchasi darhol u olijanob, kuchli va dono bo'lishi kerak, deb to'g'ri taxmin qilishadi. Beovulfning she'rdagi birinchi asosiy vazifasi so'nggi o'n ikki yil davomida har kecha Xrotgar xalqini qo'rqitayotgan yirtqich maxluq Grendelni o'ldirishdir. Beovulf yalang ya'ni hech qanday quolsiz qo'llari bilan Grendelning qo'lini tanasidan ayirib tashlaydi va yirtqich hayvon oqsoqlanib voqea davomida Beovulf tomonidan o'ldiriladi. Keyin Grendelning onasi o'g'lining o'limi uchun qasos olish uchun keladi va Beovulf ham borib uni mag'lub etishiga to'g'ri keladi. U Grendelning onasini o'ldiradi va g'alaba bilan Xrotgarga qaytib keladi, Xrotgar qiroli uni xizmati uchun juda yaxshi mukofotlaydi. Bu ikkala jang mohiyatan Beovulfga o'zini Daniyaliklar va Gitslar oldida ko'rsatishga imkon beradi va o'z obro'sini mustahkamlaydi.¹⁵ Lekin qahramon Beowulfning sarguzashtlari bu yerda yakunlanib qolmaydi. Sababi u asar davomida ulkan va yovuz ajdar bilan ham jang qilishiga to'g'ri keladi. Asar ham yaxshilik bilan ham asosiy qahramon beovulfning o'limi bilan yakunlanadi.

XULOSA

Shuni aytish joizki, har bir yaratiladigan asarlar, albatta, yaxshiliklarni ko'zlagan holda yaratiladi. Ulardan chiqariladigan xulosalar inson tushunchasiga bog'liqligi ham ehtimoldan holi emas. Ayniqsa, xalq tomonidan bunyod etiladigan asarlar ham chuqur ma'noni o'z ichiga qamrab oladi. Yuqorida ko'satib o'tilgan asarlar ikki xalqning eng mashhur durdonalaridan bo'libgina qolmay, ularning badiiy ijodga bo'lgan ishtiyoqini ham yaqqol namoyon eta oladi. Garchi barchamiz ham xalq og'zaki ijodini doimiy ravishda hayotizga tatbiq etolmasakda uning kichik-kichik ko'rinishlarini turmush tarzimizda albatta ko'ra olishimiz mumkin. Misol qilib aytadigan bo'lsak, ular urf-odatlarimizda sezilarli darajda muhim ekanligini his etamiz. Ya'ni to'ylarda, milliy bayramlar nishonlanganda, farzand dunyoga kelganda yoki mehmondorchili hollarida bir qator misollarning guvohi bo'lamiz. Bu kabi odatlar nafaqat o'zbek xalqining balki boshqa xalqlarning ham tumush tarzida yaqqol namoyon bo'lishi shubhasiz. Shu o'rinda aytish joizki, xalq og'zaki ijodi millatning milliyligini ko'rsatibgina qolmay to millat yo'q bo'lib ketmaguncha u bilan hamnafas

¹⁴ Beovulf 1997.

¹⁵ Study.com

bo'lib yurishi ham yuqorida ko'rsatilgan fikrlamiz naqadar to'g'ri ekanligiga asos ham bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Omonulla Madayev (2010) "O'zbek xalq og'zaki ijodi"
2. Tojixon Sobitova, Omonulla Madayev (2010) "Xalq poetik ijodi"
3. Henry Bradley, John Manly (1991) "English literature"
4. <https://uz.socmedarch.org/beowulf-what-you-need-to-know-1788397-8543>
5. Robert, Niles, John (1998) "A Beowulf handbook"
6. <https://askinfo.uz/1021/alpomish-dostoni-haqida-insho>
7. Lerer, Seth (1997) "Genre of the Grave and the origins of the Middle English Lyric"
8. Ker, Neil r. (1990) "Catalogue of Manuscripts containing Anglo-Saxon"
9. Cameron, Angus (1982) "Anglo-Saxon literature"
10. Aziza, O., & Sevara, S. (2023). INGLIZ TILI ME'YORIY TALAFFUZ STANDARTLARINI O 'QITISH MEZONLARI. *Involta Scientific Journal*, 2(1), 138-141.
11. Shermamatova, S., & Tursunova, M. (2022). THE WORK CURRENTLY BEING DONE TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IS THEIR EFFECTIVENESS.
12. Shermamatova, S., & Odiljonova, M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA METAFORALARNING FOYDALANISH TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 91-97.
13. Shermamatova, S., & Umirjonova, S. (2023). INGLIZ VA O 'ZBEK TILIDA SINONIM SO 'ZLARNING QO 'LLANILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 98-104.